ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2021-yil, 2-son (126) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O‘zFA akademigi
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G’OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
KIM SUNGHAE	- Daeju universiteti professori (Koreya)
BYLAPPA MANJUNATH	- Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA / PHILOLOGY

Umurov H.I.
Abdulla Oripovning she'r haqidagi ilmiy qarashlari 5

Pardayev A. B.
O'zbek tili yordamchi so'zlarida farqlash va zidlanish 9

Sobirov A. Q.
Gapning aktual bo'linishi va so'z tartibi masalasi 13

Ubaydullayeva M.
O'zbek va Qirg'iz adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlari tahlili 18

Xo'jamurodova O.
Gulchilik terminlarining kompozitsiya usuli bilan yasalishi 21

Qarshiyev K. A.
Jamol Kamol ruboiylarida mumtoz an'anaviylik tasviri 25

Maxammadiyev X.L.
Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari tahlili haqida 29

Hamidova M.A.
Ingliz va O'zbek tillarida o'timli fe'llar tasnifi muammosi 33

Kambarova M. M.
Terminology and the translation issues 38

Narziyeva M. N.
Abdulla Oripov ijodida tabiat manzaralari talqini *(yil fasllari misolida)* 41

Ulugova Sh.Sh.
Badiiy matnda konseptual metafora tuzilmalarining faollashuvi 48

Shamaxmudova A.F.
Hurmat tamoyillarini til tizimida voqelantiruvchi lisoniy harakatlar 55

Turniyazov B. N.
Kauzativlikning makromatnda ifodalanishi 58

Sharipov F.G.
O'zbek tilining so'z yasalishida A.G'ulomov o'rni 68

Mardiyev T.K.
"Do'stlik" konsepti metaforik ifodalanishi va qiyosiy tahlili 71

Babayeva S. B.
"Genetik" romanining badiiy tilida poetik tafakkur ifodasi 75

Abduraxmanov S. M.
Nemis tilidagi fe'l boshqaruvini talabalarga derivativ ifodalar orqali tushuntirish 78

Yunusova D. A.
She'riy matnlarda metaforaning uslubiy imkoniyatlari 81

Shodmonova S.B.
"Boburnoma" matnidagi vaqt o'lchov birliklari tarjimalarining lingvokulturologik xususiyatlari 85

Negova F. Sh.
Challenges in Designing ESP Courses 88

Aslanova H.
Gadoiy ijodi Alisher Navoiy nigohida 91

Toshpo'latov A.
Hikmatlarga ko'chgan mo'jizakor kimyo 94

Muxitdinova N.
Muhammad G‘oziy ijodida salaflar uslubiga izdoshlik ko‘rinishlari 96

PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS

Baysarieva Ch.U., Alikulov B.S.
Elektron ta’lim sharoitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish - pedagogik muammo sifatida 101

Xusamboeva X. G.
Maktab ta’limini rivojlantirish uchun ustozlarga yuksak-hurmat, ehtirom ko’rsatish - jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko’tarilishi zarur 104

Imomkulova O.N.
Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini matematik tayyorgarligini takomillashtirish 109

Bobomurodova L.E.
O’quvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni 113

Igamov S.S.
Xalq hunarmandchiligining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish va o‘rgatish pedagogik muammo sifatida 117

Nalibayeva Z. O., Nazirova D.R.
Oliy ta‘lim tizimi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning ayrim jihatlari 120

Mustafayev Sh.N.
Artpedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyani modernizatsiyalashning badiiy-estetik omili sifatida 124

Xodjayorova B.A.
O’smir yoshidagi bolalar ijtimoiylashuvining nazariy- metodologik asoslari 128

Kholboyeva G. Kh.
Mechanisms for improving primary gymnastics in increasing the physical activity of children in preschool education 131

Xasanova X. N.
Kimyo darslarining sifat va samaradorligini oshirishda didaktik o’yinlardan foydalanishning o’rni 135

Yuldasheva S. T.
Talabalarni badiiy qadriyatlarga bo‘lgan estetik ehtiyoj omili sifatida faollashtirishning pedagogik asoslari 138

Yadgarova O.I.
Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish asosida o‘qituvchilarni professional faoliyatga tayyorlash tizimi 141

Turg‘unov A. A.
Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirishda psixologning vazifalari 145

Karakhonova O. Yu.
Methodology for the development of logical thinking in primary schoolchildren 150

Parmonov A. A.
Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga joriy etishning zarurati 155

Taylakov U.K.
Umumta’lim maktablarida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan elektron darsliklarni yaratishga qo’yiladigan talablar 159

Kadirov T.B.
Malaka oshirish ta’limi jarayonida o‘qituvchi mediakompetentligini shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili 162

Husanov F. O.
Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi monitoringini tizimli tashkil etishni takomillashtirish 166

Ismoilov T.I.
Avtonom ta'lim muassasalari ta'limni rivojlantirish uchun katalizatorlar sifatida 169

Лутфиллаев У.М.
Технология разработка и использования в учебном процессе виртуальных лабораторий в веб-приложениях 174

Suyunov O. J.
Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslaridan foydalanish 179

Xasanov A.A.
Muloqot kompetensiyasining mohiyati 183

Jumaniyozova M.T.
O'qituvchining kasbiy kryeativligi va uni rivojlantirishning ilmiy- nazariy asoslari 188

O'tanov O'.Q.
Yosh avlod ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasasi uzluksizligini ta'minlashning ijtimoiy pedagogik masalalari 193

Nazarova Z.T.
Malaka oshirish jarayonida "Tarbiya" fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish 197

Qodirov A. X.
Jamiyatda sog'lom muhit yaratishda rahbar kadrlarning o'rni: ilmiy muammo va amaliy tavsiyalar 200

Mualliflarga

UDK: 37:377.35 (575.1)

ELEKTRON TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ch.U.Baysarieva[1], B.S.Alikulov[2]
[1]Samarqand Veterinariya meditsinasi instituti, [2]Samarqand davlat universiteti
charosbaysariyeva@gmail.com, alikulov_begali@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarining turlari, shakllari, funksiyalari hamda didaktik tamoyillarini o'rganish asosida aniqlangan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan motivatsion omillar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: talabalar mustaqil ishlari, mustaqil ta'lim funksiyallari, talabalar mustaqil ishlarining turlari va shakllari, talabalar mustaqil ta'limining motivatsion omillari, o'qituvchi shaxsi.

Организация самостоятельного образования студентов в контексте электронного образования

Аннотация. В данной статье представлена информация о мотивационных факторах, направленных на повышение эффективности самостоятельного обучения, выявленных на основе изучения видов, форм, функций и дидактических принципов самостоятельной работы студентов высшей школы.

Ключевые слова: самостоятельная работа студентов, функции самостоятельного обучения, виды и формы самостоятельной работы студентов, мотивирующие факторы самостоятельной работы студентов, личность преподавателя.

Organization of self-students in the context of electronic education as a pedagogical problem

Abstract. This article provides information on the motivational factors aimed at increasing the effectiveness of independent learning, identified on the basis of studying the types, forms, functions and didactic principles of independent work of higher school students.

Keywords: independent work of students, functions of independent learning, types and forms of independent work of students, motivating factors of independent work of students, personality of the teacher.

Jamiyatning zamonaviy rivojlanish darajasi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash sifatiga yangi talablar qo'yadigan ta'lim paradigmasi ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy mutaxassis mehnat bozorida moslashuvchan va harakatchan bo'lishi, zamonaviy ilmiy yutuqlarga muvofiq o'z kasbiy saviyasini doimiy ravishda oshirib borishga tayyor bo'lishi kerak. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, korxonalarning modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion rivojlanishi mutaxassislar (bakalavrlar, magistrlar) tayyorlashning asosiy vazifasini belgilaydi.

Oliy ta'limning asosiy vazifasi – bu o'zini o'zi rivojlantirishga qodir mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdan iborat bo'lib, bunda mustaqil ta'lim universitet talabalari faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lishini taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda [1].

Mustaqil ta'lim maxsus fanlarni o'rganishda alohida dolzarblikka ega bo'ladi, chunki u talabalarni ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Talabani o'qitish o'qituvchi tomonidan bilvosita boshqariladigan tizimli, mustaqil faoliyatni o'z ichiga oladigan dominant bo'lib qolishi, ayniqsa, zamonaviy ta'lim sharoitida oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni ko'p bosqichli tayyorlashga o'tishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayoniga yondashuvlar, shuningdek o'qitish texnologiyasining o'zgarishi, xususan elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni, shakl, metod va vositalarini hamda ularni baholash tizimini o'zgartirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan elektron ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish muammosi alohida dolzarbdir. Shu bilan birga, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish uchun pedagogik sharoitlarni rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Hozirgi vaqtda respublikamizning ko‘plab oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o‘tishi ta’minlanmoqda. Bu tizimda ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejalarida mustaqil ta’lim ajratilgan vaqt 50-60% ni tashkil etmoqda. Mutaxassislik fanlaridan ko‘zda tutilgan mustaqil ta’lim soatlarining qanday shaklda bajarilishi, topshiriqlar mazmuni qanaqa kompetensiyalarga yo‘naltirilganligi, ularning baholanishi qaysi mezonlarga asoslanib amalga oshirilmoqda?, - degan savol pedagogikaning asosiy muammolaridan biridir.

Ta’lim jarayonlarining asosiy me’yoriy hujjatlari hamda namunaviy o‘quv dasturlarining tahlili, shuningdek oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan suhbatlar va kuzatishlarimizga ko‘ra mustaqil ishlarning keng tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

fan dasturida berilgan mavzular bo‘yicha referatlar, ma’ruzalar, insholar va boshqa yozma ishlarni tayyorlash va yozish;

turli xil xarakterdagi uy vazifalarini bajarish, talabalarning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga qaratilgan individual topshiriqlarni bajarish, kurs ishlari va loyihalarni bajarish;

ilmiy-nazariy konferensiyalar, olimpiadalarda qatnashishga tayyorgarlik.

Mustaqil ishlarning quyidagi shakllarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

• Ta’limning auditoriya sharoitida – o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida olib boriladigan laboratoriya tadqiqotlarini olib borishda, ma’ruzada, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida;

• Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda – talaba yoki o‘qituvchining tashabbusi asosida o‘qituvchi bilan bevosita aloqada olib boriladigan o‘quv, loyihalash, tadqiqot ishlari bo‘yicha konsultatsiyalar;

• Talabaning ehtiyoji va tashabbusi asosida majburiy va ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun kutubxonada, uyda yoki talabalar turar joylarida bajariladigan mustaqil ta’lim.

Shu bilan birga, mustaqil ta’lim quyidagi bir nechta funksiyalarni bajarishga mo‘ljallangan:

• o‘quv - talabalar bilimlarini tizimlashtirish va mustahkamlash, ularning dunyoqarashini kengaytirish;

• rivojlantiruvchi - kognitiv qiziqishni rag‘batlantirish, diqqat, xotira, fikrlashning individual xususiyatlaridan oqilona foydalanish orqali ta’lim mazmunini o‘zlashtirishning individual shakllarini takomillashtirish;

• tarbiyaviy - irodaviy o‘zini-o‘zi boshqarish, katta hajmdagi o‘quv materialini o‘zlashtirish, unga qiziqishning vaqtincha pasayishida motivatsiyani saqlab qolish [3, 4].

Mustaqil ta’lim bir nechta topshiriqlardan iborat bo‘lishi mumkin, ya’ni 1-topshiriq asosan mavzuga oid nazariy savollardan iborat bo‘lishi, 2-topshiriqda nazariy bilimlar asosida aniq bir vaziyatda harakat qilishi talab etiladigan amaliy vazifalar bo‘lishi, 3-topshiriq bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida uchraydigan vaziyatlarga oid muammoli vaziyatlarni aks ettirishi lozim [5].

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari hamda didaktik qonuniyatlarga ko‘ra, shuni ta’kidlash lozimki, talabalarning faol mustaqil ta’lim ishlari ularda jiddiy va barqaror motivatsiya bo‘lgan taqdirdagina yuzaga kelishi mumkin. Bunda talabalar mustaqil ishlarining quyidagi asosiy motivatsion omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ta’lim jarayoni uchun ahamiyatlilik. Agar talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish natijalari ma’ruza kursida, uslubiy qo‘llanmada, laboratoriya mashg‘ulotlarida, nashrni tayyorlashda yoki boshqa usulda ishlatilishini bilsa, unda uning vazifaga munosabati o‘zgaradi va natijada sifati sezilarli darajada oshadi.

Amaliy faoliyatdagi ahamiyati. Bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatiga oid amaliy vazifalar va muammoli vaziyatlarni hal etishda mustaqil ta’lim topshiriqlaridan faol foydalanish. Masalan, talabaga oliy ta’limning dastlabki yillaridan muayyan mavzu, masalan bitiruv malakaviy ishi uchun topshiriq berilsa yoki yakuniy davlat attestatsiyasining topshiriqlari mazmuni yetkazilsa, unda u ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni o‘z maqsadi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda bajaradi.

Ijodiy jarayonga jalb qilish. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda bajariladigan topshiriqning sifati – ijodiy jarayonning xususiyatlari – kelajakdagi natijaning jozibadorligi va natijadorligi ("o‘zidagi o‘zgarishlardan quvonch hissi"), ishtiyoq, loyiha tanlovi va qiziqarli vazifani bajarishiga bog‘liq. Bunga kichik tadqiqot ishlari, loyihalashtirish, ijodiy yoki uslubiy ishlarda ishtirok etish kabi shakllarni kiritish mumkin.

Faol o‘qitish usullari. Muhim motivatsion omil - bu oliy o‘quv yurtlarida ta’limning interaktiv usuli. Ta’lim jarayoniga faol ijtimoiy-psixologik o‘rganish usullarini, avvalambor, rol o‘ynash, taqlid qilish va tashkiliy-faoliyat o‘yinlariga asoslangan o‘yin mashg‘ulotlarini kiritish kerak. Bunday ish jarayonida nafaqat ko‘nikmalarni egallash, balki bir tomonlama shaxsiy ma’lumotdan o‘rganilayotgan ob’ekt

to‘g‘risidagi ko‘p qirrali bilimlarga o‘tish yuz beradi. Faol ta’lim vositalarini joriy etish yo‘lidagi birinchi qadam - bu auditoriyadagi hissiy, shaxsiy va kasbiy holatga bog‘liq ish uslubidan foydalanish, muhim kasbiy vaziyatlarni muhokama qilishdan boshlanishi ahamiyatlidir.

Loyiha-tanlovlarida ishtirok etish. Talabalarning o‘quv ishlaridagi mustaqilligini oshirishning motivatsion sharti - bu o‘quv fanlari bo‘yicha olimpiadalar va musobaqalarda ishtirok etish, tadqiqot ishlari yoki amaliy ishlar taqdimotlarini yo‘lga qo‘yish.

Rag‘batlantiruvchi nazorat. Talabalar bilimlarining sifatini baholashning moslashuvchan tizimi (rag‘batlantiruvchi ballar, reytinglar, testlar, nostandart sinov jarayonlari)dan ma’lum sharoitlarda foydalanish raqobat muhitini keltirib chiqaradi, bu o‘z-o‘zidan talabalarning o‘zini-o‘zi takomillashtirish uchun kuchli motivatsiya omilidir. Chunki o‘rganishlarimizga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida aksariyat talabalarning birlamchi maqsadi fanlardan baho olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchining baholash uslubiga qarab muayyan fanlarni o‘zlashtirishi kuzatilmoqda. Ta’kidlash lozimki, an’anaviy ta’limda baholash talabaning nazariy bilim darajasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning kasbiy kompetensiyalari, mustaqil fikrlash va ichki imkoniyatlari e’tibordan chetda qoldirilgan.

Ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish. Talabalarni ijodkorlik, novatorlik va fikrlash qobiliyati uchun maxsus stipendiyalar va rag‘batlantirishlar kabi ta’sirchan vositalar orqali mustaqil ish bilan shug‘ullanishga undash mumkin. Masalan, muddatidan oldin topshirilgan yoki talabaning yuqori saviyada bajarilgan mustaqil ishlari (yuqori sifat, ingliz tilidagi annotatsiya, amaliy va kasbiy ahamiyatga egaligi) yuqori ball bilan baholanishi, shuningdek alohida e’tirof etilishi maqsadga muvofiq.

O‘qituvchining shaxsi va o‘qitish uslubi. O‘qituvchining kasbiy mahorat va ijod namunasi hamda mashg‘ulotlarni o‘tkazish vositasi sifatida harakat qilishi o‘quvchiga o‘zining ijodiy salohiyatini ochib berishga, ichki o‘sish istiqbollarini aniqlashga yordam beradi. O‘qituvchi nafaqat mavzuning mazmuni yoritib berishi, uni mustahkamlashi yoki ob’ektiv baholashi, balki shu bilan birgalikda talabaning o‘zini namoyon etishiga, o‘zini ro‘yobga chiqarishiga sharoti yaratishi hamda talabaning maqsadini va ehtiyojini hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagi didaktik talablarni hisobga olish kerak:

- ✓ topshiriqni bajarish vaqtining taxminiy me’yorlari, o‘quv materialining mantiqiy mazmuni va tuzilishi, topshiriqning amaliy maqsadi aniqlashtirish;
- ✓ mustaqil ta’lim topshiriqlarini talaba bilish faoliyatining xususiyatlariga moslashtirish;
- ✓ mustaqil ta’lim topshiriqlarining murakkablik va muammolilik darajasining bosqichma-bosqich rivojlanishiga erishish.

Talaba mustaqil ishida unga individual pedagogik yordam ko‘rsatishda o‘qituvchi turli xil professional rollarni bajaradi: yordamchi, maslahatchi, moderator, koordinator, murabbiy. Bunday holda o‘qituvchi mustaqil ta’lim topshiriqlar mazmuni va topshiriqni bajarish algoritmi bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqishi, reja va amalga oshirish dasturini ishlab chiqishda yordam berish uchun maslahatlar tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta’lim rolini oshirish o‘qituvchi faoliyatining quyidagi yo‘nalishlarini taqozo qiladi:

o‘quv materialini o‘zlashtirishda kompetent yondashuvga asoslangan mustaqil ta’limning rolini belgilash, mustaqil o‘rganish uchun kasbiy ahamiyatdagi ta’limiy elementlar hamda ularni o‘zlashtirishning metodik vositalarini ishlab chiqish maqsadida o‘quv rejalari va dasturlarini qayta ko‘rib chiqish;

o‘qitish uslublarini optimallashtirish, o‘qituvchilarning ish samaradorligini oshiradigan yangi o‘quv texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish, o‘quvchiga qulay vaqtda o‘quv materialini o‘zlashtirishga imkon beradigan axborot texnologiyalarining didaktik vositalaridan faol foydalanish;

talabalar mustaqil ishini nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ob’ektiv baholash tizimini joriy etish va avtomatlashtirilgan test sinovlarini keng joriy etish;

talabalarning o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish metodikasini takomillashtirish, chunki aynan o‘quv ishlarining turlari, birinchi navbatda, ularni kasbiy vazifalarni mustaqil bajarishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim - bu tashabbuskorlik, faollik va ijodkorlik kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash vositasiga aylanadigan bilish faoliyati turidir. Oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil ishlarining rolini oshirish o‘quv jarayonini tashkil etishning butun tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni anglatadi, bu talabaning bilim olish qobiliyatini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini, maqsad va ehtiyojlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat. Talabalarning ixtisosligi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda mustaqil ishlarini tashkil etish usullari va shakllari o‘qituvchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Mustaqil ta’lim samaradorligi

talabaning maqsad va ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib, o‘rganilishi ko‘zda tutilgan o‘quv materialini kognitiv va kompetent yondashuv asosida mustaqil o‘rganilishi quyidagi omillarga bog‘liqligi aniqlandi:

- ✓ mustaqil ta’lim topshiriqlarining ta’lim jarayoni uchun nazariy va amaliy faoliyatdagi ahamiyatini anglash;
- ✓ oliy ta’limning dastlabki bosqichlaridan faol ijodiy jarayonga jalb qilish;
- ✓ faol o‘qitish usullarini joriy qilish;
- ✓ loyiha-tanlovlarida ishtirok etish;
- ✓ rag‘batlantiruvchi nazorat;
- ✓ ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish;
- ✓ o‘qituvchining shaxsi va o‘qitish uslubi.

Mazkur omillar oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlari mazmunini takomillashtirish, xususan kompetent yondashuvga asoslangan mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish uchun samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish asos bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi.

3. Парникова Г.М. Учебная самостоятельность студента неязыкова ВУЗа: Сущность и структура понятия // Педагогическое образование в России. – 2016. - №5. – с. 6-10.

4. Пидкасистый П.И. Организация учебно-познавательной деятельности студентов / П.И. Пидкасистый. – М.: Педагогическое общество России, 2004.

5. Urakov Sh.R. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Samarqand, 2018 y.

UDK: 37.1

MAKTAB TA’LIMINI RIVOJLANTIRISH UCHUN USTOZLARGA YUKSAK HURMAT, EHTIROM KO’RSATISH - JAMIYATIMIZDA OLIY QADRIYAT DARAJASIGA KO’TARILISHI ZARUR

X. G. Xusamboeva
O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi
khusamboyeva@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada maktab ta’limiga alohida to’xtalib, mamlakat ravnaqi, rivojlanishi va kelajagi uchun ta’lim tizimining ahamiyati ko’rsatib o’tilgan. Bunda birinchi navbatda ta’lim tizimining asosiy ishtirokchilari bo’lgan pedagog xodimlar maqomini oshirish bosh mezon sifatida ta’riflangan. Darhaqiqat, o’z kasbining fidoiysi bo’lgan ilmli, bilimli, ma’rifatli muallimlar har doim ham topilavermaydi. Bugungi kun o’qituvchisining bilimi ertangi kunni belgilasa, uning mavqeyi jamiyatning nufuzini belgilaydi. Shunday ekan taraqqiyot formulasini jamiyat hayotiga tatbiq etish uchun o’qituvchilik maqomini oliy qadriyat darajasiga ko’tarish zarur.

Respublikamizda "Pedagog xodimlarning maqomi to’g’risida"gi qonun loyihasi yaratilib jamoatchilik muhokamasiga qo’yildi. Bu O’zbekiston mustaqil bo’lgan davrdagi pedagog xodimlar mavqeyini oshirishga qaratilgan eng birinchi qonun hujjatidir. Mazkur qaror loyihasida pedagog xodim maqomining huquqiy asoslari, pedagogik faoliyatning asosiy prinsiplari, pedagog xodim maqomi bo’yicha davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari aniq belgilangan bo’lib, pedagog xodimlarning ijtimoiy himoyasi ham qonun bilan mustahkamlanmoqda.

Mazkur maqolada olimu ulamolarning fikrlari orqali o’qituvchilik kasbining murakkab qirralari, ijobiy sifatlari, pedagog bo’lish uchun qanday fazilatlarga ega bo’lish kerakligi haqidagi ma’lumotlar keng yoritib berilgan. Maqolada pedagog xodimning maqomini oshirishga ilmiy yondashilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, ta’lim tizimi, maktab, maktab ta’limi, o’qituvchi, pedagog, pedagog xodim maqomi, muallim, pedagoglar mavqei, qonun, intellekt, pedagogik mahorat, oliy qadriyat, o’quvchi.